

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA KOMMUNIKATIV
KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSION
YONDASHUVNING AHAMIYATI**

Mirzahalovs Nodira Yuldashevna

*Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi Yangiyo‘l shahar 1-sonli ixtisoslashtirilgan davlat
umumta‘lim maktabi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda integratsion yondashuvning ahamiyati o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, integratsion yondashuv yordamida turli fanlararo va faoliyatlararo metodlarni birlashtirish, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma muloqot ko‘nikmalarini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bunday yondashuv o‘quvchilarda tilni amaliy foydalanish, muloqot madaniyati va hamkorlik qobiliyatlarini mustahkamlashga yordam beradi. Maqolada boshlang‘ich ta‘lim jarayonida integratsion yondashuvning metodik vositalari, pedagogik strategiyalari va uning ta‘lim sifatiga ijobiy ta‘siri tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar

boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, kommunikativ kompetensiya, integratsion yondashuv, pedagogik strategiyalar, til o‘rganish va muloqot, fanlararo metodlar.

KIRISH: XXI asr da ta‘lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdir. Chunki kommunikativ kompetensiya shaxsning ijtimoiylashuvi, fikrini erkin ifoda etishi, muloqot madaniyatiga ega bo‘lishi, jamoada samarali faoliyat yuritishi uchun asos yaratadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da ham [1] boshlang‘ich ta‘lim bosqichida o‘quvchilarning tafakkurini, nutqini va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish muhim yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Shuningdek, “Davlat ta‘lim standarti”da [2] kommunikativ kompetensiya shaxsning asosiy kalit kompetensiyalaridan biri sifatida e‘tirof etilgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun kommunikativ kompetensiyani shakllantirish faqat til fanlari bilan cheklanmasdan, barcha fanlarda integratsion yondashuv orqali amalga oshirilgandagina samarali bo‘ladi. Bu yondashuv bolalarda tildan amaliy foydalanish, fikrni mantiqan bayon etish, o‘z g‘oyasini ifodalash va tinglash madaniyatini o‘zlashtirishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu jarayonning samaradorligi ko'p jihatdan integratsion yondashuvni to'g'ri qo'llashga bog'liqdir. Mirziyoyev Sh. M. [3] o'z asarida ta'limni modernizatsiya qilish, yosh avlodni zamonaviy kompetensiyalarga ega etib tarbiyalash zarurligini ta'kidlab, aynan boshlang'ich bosqichdan kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish davlat siyosati darajasida muhim yo'nalish ekanini qayd etadi. Ushbu g'oya "Ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" [4]da ham o'z ifodasini topgan bo'lib, unda o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, axborot bilan ishlash, muloqot madaniyati va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Xutorskiy A. V. [5] ta'limdagi kompetensiyaviy yondashuvni ilmiy-nazariy asoslab, uni shaxsning faoliyatga tayyorligi va o'zini ijtimoiy hayotda samarali namoyon eta olishi sifatida izohlaydi. Bu yondashuv o'quvchilarni faqat bilim bilan emas, balki bilimni amaliyotda qo'llash malakasiga ega bo'lishga yo'naltiradi.

TADQIQOT NATIJALARI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ madaniyatini shakllantirishda integrative yondashuv asosida shakllantirish masalalari Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 2020-yil 23-sentabr, 2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning "Taraqqiyot strategiyasi"da va boshqa me'yoriy hujjatlarda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish vazifalari belgilangan bo'lib, bu esa ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan ishlash, ularni barkamol avlod sifatida shakllantirish davlat miqyosida muvaffaqiyatli amalga oshirilishida zamin bolmoqda. Jumladan, Talim to'g'risidagi qonunning 9-moddasida Boshlang'ich talim talim oluvchilarda umumiy orta talimni davom ettirish uchun zarur bolgan savodxonlik, bilim, malaka va konikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan deb alohida takidlangan[6].

Ta'limda integratsiyani qo'llash bugungi kun o'quvchilari uchun fan qiyinchiliklari, mavzularning ortiqcha tushunarsiz holatlarini bartaraf etish, mavzularni o'quvchilar ong-u-shuuriga singib ketishi kabi mashaqqatli vaziyatlarning o'z yechimini topmoq yetakchi sifatida yordam bermoqda. Zamon tobora avj olib o'zgarayotgan bir paytda, ta'lim tizimimizga ham talaygina o'zgarishlar va yangiliklar kiritilmoqda. Shu jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi va ko'plab ixtisoslashtirilgan maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun fanlarni integratsiyalab o'tish talab qilinmoqda. Yuqoridagi muammoli vaziyatlar va boshqa ko'plab ziddiyat hamda kamchiliklarni bartaraf etish yo'lida o'z hissamizni qo'shish maqsadida quyidagi Integrativ yondashuv

asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kommunikativ madaniyatni shakllantirish” nomli maqolani yozishga qaror qildik.

Ushbu maqola mazmunan: boshlang'ich ta'lim, boshlang'ich sinf, integratsiya, integrativ ta'lim, kommunikatsiya, kommunikativlik, kommunikativ mamadaniyat, nutqiy madaniyat, muloqot madaniyati, kommunikativ shakllanish, ilmiy dunyoqarash, rivojlanish kabi tushunchalarni qisqacha izohini berib boramiz.

Boshlang'ich sinf darsliklari o'quvchining tili, tafakkuri va muloqot madaniyatini shakllantirishda asosiy vositadir. Darslikdagi matn, mashq va topshiriqlarning **integratsion mazmunda tuzilishi** o'quvchining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi.

Masalan:

- **Ona tili** darsligida berilgan so'z boyligini oshirishga qaratilgan mashqlar **o'qish** darsidagi matnlar bilan bog'lab o'tilsa, o'quvchi yangi so'zlarni amaliy nutqda qo'llashni o'rganadi.

- **Tabiatshunoslik** yoki **atrop-muhit** darslarida kuzatuv natijalari haqida og'zaki hikoya tuzish topshirig'i berilsa, bu o'quvchilarning nutqini rivojlantiradi va **ko'p yo'nalishli o'rganishni** ta'minlaydi.

- **Texnologiya** yoki **mehnat** darsida guruhda ishlash, birgalikda qaror qabul qilish kabi faoliyatlar kommunikativ ko'nikmalarni mustahkamlaydi.

Shuningdek, darsliklar bilan ishlashda o'qituvchi o'quvchilarga **interaktiv mashqlar, rol o'yinlari, dialogik nutqni rivojlantiruvchi topshiriqlar** berish orqali kommunikativ muhit yaratishi lozim.

Integratsion yondashuv asosida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish usullari

- **Matn asosida muloqot tashkil etish.** Har bir o'qish yoki ona tili darsidagi matndan so'ng suhbat, munozara yoki fikr bildirish mashqlari o'tkazilishi kerak.

- **Fanning ichki integratsiyasi.** Masalan, ona tili darsida so'z turkumlarini o'rganishda ularni she'r yoki hikoya matnlari bilan bog'lab o'rganish.

- **Fanlararo integratsiya.** O'quvchilar “Vatan”, “Tabiat”, “Oila” kabi umumiy mavzular asosida bir necha fanlarda bir xil mazmunda ishlaydi, bu esa nutqiy muloqotni mustahkamlaydi.

- **Axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash.** Darslik materiallarini interaktiv dasturlar, audio va video qo'llanmalar bilan boyitish o'quvchining eshitish, tushunish va so'zlash ko'nikmalarini bir vaqtda rivojlantiradi.

Hozirgi boshlang'ich sinf darsliklarining aksariyatida integratsion yondashuvga asoslangan topshiriqlar mavjud. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan **“Ona tili va o'qish savodxonligi”** darsliklarida matn, she'r, hikoya, lug'at bilan ishlash mashqlari orqali o'quvchilarda til, tafakkur va muloqotning uzviy rivojlanishi ko'zda tutilgan.

Darsliklardagi topshiriqlar o'quvchini faqat o'qishga emas, balki o'z fikrini ifodalash, bahslashish, savol berish, javob qaytarish orqali **real kommunikativ faoliyatga** jalb qiladi.

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi. O'zbekiston Respublikasida Boshlang'ich ta'lim 1–4-sinflarda bolalarga ilk ta'lim berish, ularni ma'naviy kamol toptirishning boshlanish davri hisoblanadi. U 1–4-sinflarni o'z ichiga oladi va o'qish 6–7 yoshdan boshlanadi. Bunda ta'lim mazmunini belgilash muhim ahamiyatga ega.

Integratsiya so'zi lotincha “integrotiklash, to'ldirish”, “integerbutun so'zidan kelib chiqqan bo'lib, integratsiya ayrim bo'laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo'shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir. Integratsiya fanlarning mexanik birlashishi emas, bu sintez yangi narsaning kelib chiqishi, kashfiyotdir. Alohida tizimlarning bog'lanishi va yagona bir yangi narsaning yaratilishidir.

Integrativ ta'lim o'quvchilarning ong-tasavvurida bizni o'rab turgan dunyo haqida yanada to'liq va atroflicha keng tasavvur qilish imkoniyatini yaratadi. Bolalar o'z bilimlarini amaliyotda aniq va lo'nda, ravon ifoda erishgan muyassar bo'lishadi, chunki bu yondashuvda bilimlarning tub mohiyati keng ochib berish imkoniyati olamni bir butunlikda, bir-biriga bog'liq holda tasavvur qilish kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Kommunikativlik shaxslararo muloqot madaniyatiga ega bo'lishi, suhbatdoshini tinglash va eshitish qobiliyatini, muomalaga kirisha olish va aloqa o'rnatish, axborot to'plash, turli ijtimoiy munosabatlar o'rnatish, va noverbal xulqatvorining ko'rinishi.

Muloqot madaniyati odamlarni hurmat qilish, xayrixohlik, samimiyat, bag'rikenglik va hokazolar kabi ma'lum xarakter xususiyatlarining mavjudligini nazarda tutadi. Muloqot madaniyati xushmuomalalilik kabi o'ziga xos xususiyatlarni rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi.

Xushmuomalalilik xarakterli xususiyat, uning asosiy mazmuni insoniy muloqotning turli vaziyatlarida muayyan xatti-harakatlar qoidalariga rioya qilish odati, odob-axloq qoidalariga rioya qilishdir.

Fanlararo aloqadorlik nazariyasining taraqqiyotida tabaqalashtirilgan holat hukm sursa ham amaliyotda integratsiya, o'zaro aloqadorlik fanning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan fanlararo aloqadorlik muammolarini hal etishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy hayot talabidir.

Yuqorida ko'rib chiqqan ilmiy atamalar va ularga berilgan munosib ta'riflar orqali shuni tushunishimiz mumkinki, bugungi kunning yosh avlod vakillari bo'lmish boshlang'ich sinf o'qituvchilariga darslarni bir-biriga integratsiyalash

orqali o'tilsa ham darslar qiziqarli o'tadi, ham o'quvchilar o'ziga kerakli bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga fanlarni bir-biriga integratsiyalab o'tish jarayoni o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi ko'plab ko'zga ko'ringan hal qilish biroz qiyin bo'lgan yoki shunaqa qiyindek ko'ringan va bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanib ulgurgan tushunarsiz, ziddiyatli, qiyin va zerikarli, qiziqarsiz va boshqa ko'plab shunga o'xshash holatlardan halos bo'lish imkonini beradi.

O'qituvchilar boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars berish jarayonida mavzularni tushuntirar ekan, bu jarayonlarda kitobidagi mavzulardan biroz chetlab boshqa fanlar bilan ham aloqasini, bog'liqlik tomonlarni topib, shu bog'liqlik joylarini o'quvchilarga sodda va ravon tilda tushuntirib bersa, bu holatda ham o'qituvchi o'z maqsadiga erishadi. Bundan tashqari, o'quvchilar mavzuni ortiqcha qiyinchiliksiz zerikmasdan tushunib olishadi. Buning uchun o'qituvchilardan shu kunda o'tadigan mavzuni o'qib-o'rganib, tahlil qilib, o'quvchilar uchun tushunarsiz va biroz chigal, biroz murakkabroq bo'lgan jumllarini o'ziga belgilab olib, shu jumllarni fanlararo integrativ yondashuv asosida tushuntirib bersa, ta'lim talablari, ish rejasi va o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan natijasiga oson va samarali erishadi.

O'qituvchilar o'z darslarida integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kommunikativ madaniyatni shakllantirish shakllantirar ekan, avvalo, o'zi kommunikativ shakllangan, integrativ dars ko'nikmalarini puxta egallagan bo'lishi darkor.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars berish jarayonida fanlararo integratsiyani barcha o'tilayotgan darsliklar mavzusida qo'llashimiz lozim. Integrativ yondashuv nima ekanligini boshlang'ich sinf o'quvchilariga juda qiziqarli va esda qolarli qilib tushuntirish va ongiga singdirish lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili, o'qish darslarida mavzularni xalq og'zaki ijodi ijodi namunalari bilan ham integratsiyalab o'tish kerak, chunki bola o'zi yashayotgan millatning ma'naviy-ma'rifiy merosidan boxabar bo'lishi lozim.

Xulosa: Boshlang'ich sinf o'quvchilari darsliklar tarkibiga o'zbek xalq maqollari, o'zbek xalq topishmoqlari, tez aytishlar, ibratli hikoyalar, masal, matal kabi ogzaki meroslarimizdan ko'proq qo'shib tushuntirib berishimiz lozim. Chunki, yosh o'sib kelayotgan avlod vakillari bu kabi ibratli so'zlardan o'zlariga juda yaxshi fikrlarni qabul qilib olishlari lozim.

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son. "Ta'lim to'g'risida" gi qonun.
2. R.Mavlonova, N.Vohidova va b. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. O'quv qo'llanma. - T.: "Fan va texnologiyalar", 2013. -314 b.
3. Hayitov.A.I. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi,innovatsiya va integratsiyasi
4. Uslubiy qo'llanma. T.: "Zuhra Baraka Biznes", 2021. - 129 b.
5. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: Ўзбекистон, 2021. - 384 б.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. "2030 йилгача таълим тизимини ривожлантириш концепцияси тўғрисида". - Тошкент, 2019.
7. Хуторской А. В. Компетентностный подход в образовании. - Москва: Издательский дом МГУ, 2013. - 320 с.